

**Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2019 yil yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 786,4 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi.


**Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi**

(2019 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Sirdaryo viloyati bo'yicha - jami</b>	<b>1 786,4</b>
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	2 106,4
Qurilish	1 954,0
Savdo	2 273,2
Tashish va saqlash	1 362,9
Axborot va aloqa	1 657,2
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2 836,7
Ta'lim	1 702,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 517,7
Boshqa faoliyat turlari	1 890,3

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahrida **2256,4** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **126,3** %), Guliston shahrida **1925,7** ming so'mni (**107,8** %) va Yangiyer shahrida **1 901,9** ming so'mni (**106,5** %) tashkil etgan bo'lsa, Mirzaobod tumanida **1 563,4** ming so'mni (**87,5** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2019 yil yanvar-mart, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)




**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida **501,9 ming so'mni** tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

**Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2018 yil Yanvar-mart	2019 yil Yanvar-mart	O'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1342,6</b>	<b>1786,4</b>	<b>133,0</b>
Guliston sh.	1489,0	1925,7	129,3
Shirin sh.	1611,6	2256,4	140,0
Yangiyer sh.	1429,0	1901,9	133,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	1212,0	1633,2	134,8
Boyovut	1150,7	1624,2	141,1
Guliston	1188,0	1579,0	132,9
Sayhunobod	1289,1	1791,8	139,0
Mirzaobod	1171,2	1563,4	133,5
Sardoba	1223,3	1608,7	131,5
Sirdaryo	1243,9	1708,9	137,4
Xovos	1250,8	1696,0	135,6

## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2018 yil yanvar-dekabr (dastlabki ma'lumot)



**Ish haqi.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

1. Sanoatda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2106,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 27,2 % ga oshdi.



•Qurilishda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1954,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 17,8 % ga oshdi.




•Savdo sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2273,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 10,7 % ga oshdi.

•Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1362,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 20,1 % ga oshdi.



## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2019 yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)



•Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1657,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 0,5 % ga tushdi.



•Moliya va sug'urta faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2836,7 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 35,8 % ga oshdi.

•Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1702,1 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 36,1 % ga oshdi.



•Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1517,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 38,4 % ga oshdi.